

Nodira Xolikova

JADID ADABIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NODIRA XOLIKOVA

JADID ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

ZEBO PRINT
Toshkent - 2025

UO'K 82'04;37.0

KBK 84(5uzb)

X-24

N.Xolikova. Jadid adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "ZEBO PRINT", 2025. 314 b.

"Jadid adabiyoti" o'quv qo'llanmasi mazkur fanning o'quv va ishchi dasturi asosida yaratilgan. Darslikda jadid adabiyoti fanining mohiyati, tadqiqi va tadbiqi, mavjud adabiy oqim va janrlarining vujudga kelish tarixi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, jadid badiiy tafakkurining taraqqiy etish tadriji ma'lum asarlar tahlili va talqini vositasida bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma filologiya yo'nalishi bakalavriat va magistr talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar hamda mustaqil shakllarining mavzulari mohiyatini o'z ichida aks ettirgan.

O'quv qo'llanmadan pedagogika-psixologiya va gumanitar fanlar fakultetlari talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar

Sh.Amonov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

A.R.Davlatova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 9 iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-581-61-8

© N.Xolikova., 2025

© "Zebo print".,2025

KIRISH

Jadid adabiyoti fanini o'rganish va o'quvchilarga yetkazish orqali ajdodlarimizning asriy orzusi hisoblangan istiqlol, erk, ozodlik, shuningdek, Vatan, millat kabi tushunchalar yosh avlod qalbida va ongida shakllantiriladi. Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, XX asr adabiyotini chuqur o'rganish uchun yo'l ochildi. XX asr boshlari o'zbek adabiyotining yangilanish tamoyillarini, undagi janr, vazn masalalarini, ramziylik va g'oyaviy konsepsiyalarini o'rganish yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Shu bois jadid namoyandalarining ijodiy qarashlarini tadrijiy va qiyosiy tarzda o'rganish, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF – 5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 30-sentabrdagi “Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida”, 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-son “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

amalga oshirishda ushbu ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek va dunyo olimlari jadidchilik hamda jadid adabiyotini u shakllangan va takomilga erishgan XX asr avvalidanoq tadqiq qila boshlagan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurahmon Sa'diy, Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Ahmad Shukriy singari o'zbek, Ismoilbek Gasprali, Zarif Bashiriy, Jalil Mamatqulizoda kabi qardosh adabiyotshunoslar, shuningdek, rus olimlaridan V.Bartold, A.Samoylovich va A.Pyaskovskiy tadqiqotlari shular jumlasidan. Jadid adabiyoti namoyandalari qatorida jadid adabiyoti munaqqidlarining fikr-qarashlari, tanqid va munosabatlari ayni kunda muhim ahamiyatga molik. Aynan shu jihatdan "Jadid adabiyoti" o'quv qo'llanmasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.